



THE ROLE OF TURKIC LANGUAGES IN THE IMPROVEMENT OF INTERETHNIC RELATIONS

Diloram Babajanova

Doctor of Historical Sciences, Professor
(Uzbekistan State World Languages University)

90/185-58-54 d.babajanova@uzswlu.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19471009>

ARTICLE INFO

Received: 01st April 2026

Accepted: 07th April 2026

Online: 08th April 2026

KEYWORDS

*Interethnic relations,
Turkic languages,
consultative meeting,
regional cooperation,
international community,
interethnic harmony.*

ABSTRACT

The article discusses the significant work being carried out in Uzbekistan to develop cultural, educational, and literary ties among Turkic-speaking peoples, especially in improving interethnic relations. It also addresses issues of strengthening friendship and solidarity among fraternal nations, as well as further enhancing regional cooperation. It is emphasized that Turkic-speaking peoples, united by a common idea, have preserved their national and religious values for centuries. Relying on a shared history, language, and culture, they aim to ensure the unity of the Turkic world in the future and to elevate political, economic, and cultural development to a new level that contributes to the prosperity of the region's peoples.

The article also considers issues related to strengthening interethnic relations among the peoples belonging to the Turkic language family—Azerbaijanis, Kazakhs, Kyrgyz, Turks, Turkmens, and Uzbeks—as well as matters of economic growth, job creation, and improving public welfare.

РОЛЬ ТЮРКСКИХ ЯЗЫКОВ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ МЕЖНАЦИОНАЛЬНЫХ ОТНОШЕНИЙ

Дилорам Бабаджанова

доктор исторических наук, профессор

(Узбекский государственный университет мировых языков)

90/185-58-54 d.babajanova@uzswlu.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19471009>

ARTICLE INFO

Received: 01st April 2026

Accepted: 07th April 2026

Online: 08th April 2026

ABSTRACT

В статье рассматривается, что в Узбекистане ведётся большая работа по развитию культурно-просветительских и литературных связей между тюркоязычными народами, особенно в направлении совершенствования межнациональных отношений. Также освещаются вопросы укрепления дружбы и сплочённости между братскими народами, а также



KEYWORDS

Межнациональные отношения, тюркские языки, консультативная встреча, региональное сотрудничество, международное сообщество, межнациональное согласие.

дальнейшего улучшения регионального сотрудничества.

Подчеркивается, что тюркоязычные народы, объединённые общей идеей, на протяжении многих веков сохраняют свои национально-религиозные ценности. Опираясь на общую историю, язык и культуру, они стремятся обеспечить единство тюркского мира в будущем, а также вывести политическое, экономическое и культурное развитие на новый уровень, способствующий процветанию народов региона.

Рассматриваются вопросы дальнейшего укрепления межнациональных отношений между народами, принадлежащими к тюркской языковой семье — азербайджанцами, казахами, киргизами, турками, туркменами и узбеками, а также вопросы экономического роста, создания новых рабочих мест и повышения благосостояния народов.

MILLATLARARO MUNOSABATLARNING TAKOMILLASHUVIDA TURKIY TILLARNING O'RNI

Diloram Babajanova

Tarix fanlari doktori, professor (O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti)

90/185-58-54 d.babajanova@uzswlu.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19471009>

ARTICLE INFO

Received: 01st April 2026

Accepted: 07th April 2026

Online: 08th April 2026

KEYWORDS

Millatlararo munosabatlar, turkiy tillar, maslahat uchrashuvi, mintaqaviy hamkorlik, xalqaro hamjamiyat, millatlararo hamjihatlik.

ABSTRACT

Maqolada O'zbekistonda turkiy tilli xalqlar o'rtasidagi madaniy-ma'rifiy, adabiy aloqalarni, ayniqsa, millatlararo munosabatlarni takomillashtirish yo'lida katta ishlar qilinayotgani, shuningdek, qardosh xalqlar o'rtasidagi do'stlik va hamjihatlikni mustahkamlash, mintaqaviy hamkorlikni yanada yaxshilash masalalari bayon qilingan. Turkiy tilli xalqlarning bir g'oya ostida ko'p asrlik milliy-diniy qadriyatlarini asrab-avaylash, kelajakda turkiy dunyo birligini ta'minlashga hamda mintaqa xalqlarining ravnaqiga xizmat qiladigan umumiy tarix, til va madaniyatga suyangan holda siyosiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishini yangi bosqichga olib chiqishdan iborat. Turkiy tillar oilasiga mansub ozarbayjon, qozoq, qirg'iz, turk, turkman va o'zbek xalqlari o'rtasidagi millatlararo munosabatlarni yanada mustahkamlash, shuningdek, iqtisodiy o'sish, yangi ish o'rinlari yaratish va xalqlar farovonligini oshirishga qaratilgan masalalar xususida fikr yuritiladi.



1. Kirish

Dunyodagi hech bir mamlakat, davlat o'z tashqi siyosatini boshqa mamlakat, davlat va ularning xalqlari bilan aloqa bog'lamasdan, yakka holda yurita olmaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Sh.Mirziyoyev

ta'kidlaganidek, "Bugungi dunyoda hamjihatlik va amaliy hamkorlik ruhini saqlash, umumiy manfaatlarni mavjud ziddiyatlardan yuqori qo'ygan holda, mamlakatlarni jipslashtirish g'oyasi har qachongidan ham dolzarb bo'lib bormoqda"[1.-B.401]. Zero, O'zbekiston hukumati ham o'z siyosiy mustaqilligini qo'lga kiritgan dastlabki yillardanoq, jahon hamjamiyatiga qo'shilish, barcha davlatlar bilan ko'p tomonlama aloqalarini mustahkamlashga katta e'tibor qaratdi. Keyingi yillarda ayniqsa, turkiy tilli davlatlar rahbarlarining tarixiy, ilmiy va madaniy merosni o'rganish borasidagi uchrashuvlarini muntazam o'tkazish haqidagi O'zbekiston tashabbusining ilgari surilishi, turkiy tilli xalqlarning dunyo sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan beqiyos hissasi va nihoyatda boy yozma merosini birgalikda chuqur o'rganish hozirgi kunda ushbu hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun butunlay yangi imkoniyatlar vujudga kelayotganini ko'rsatdi.

Turkiy tilli xalqlarning dunyo sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan beqiyos hissasi, ular o'rtasidagi ko'p asrlik do'stlik, millatlararo totuvlik, bir-birini qo'llab-quvvatlash, barqarorlik va ayniqsa, hamkorlik hamda madaniy aloqalarning o'rni hamisha muhim ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Turkiy tillar hozirgi va qadimgi turkiy xalqlar va elatlarning tillari hisoblanadi. Asosan,

O'zbekiston, Turkiya, Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Rossiya Federatsiyasi, XXR, Afg'oniston, Eron, Tojikistonda, shuningdek, Bolgariya, Ruminiya, Ukraina, Germaniya, Kipr, Makedoniya, Albaniya, AQSH, Saudiya Arabistoni va boshqa bir kancha mamlakatlarda tarqalgan. O'tgan asr oxiridagi ma'lumotlarga ko'ra, Turkiy tillarda so'zlashuvchilarning umumiy soni 130 mln. kishidan ortiq.

2. Adabiyotlar sharhi:

Ijtimoiy fanlarning turli sohalarida, jumladan, tarix, filologiya, falsafa fanlarida turkiy tillar tarixi, qiyosiy-tarixiy grammatikasi, uning turli tarmoqlari bilan bog'liq qator ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. Turkiy tillar deganda, Sibirdan Bolqon yarim oroligacha bir chiziq bo'ylab cho'zilgan ulkan geografik hududda tarqalgan o'zbek, uyg'ur, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, saxa (yoqut), tuva, xakas, oltoy, karagas, shor, turkman, ozarbayjon, turk, gagauz, tatar, boshqird, chuvash, qo'miq, no'g'ay, qorachoybolqor, tofalar, chuvash kabi 25 dan ortiq til tushuniladi. Turkiy tillar hozirgi tarqalish geografiyasiga ko'ra, quyidagi mintaqalarga ajratiladi: O'rta va Janubiy-Sharqiy Osiyo, Janubiy va G'arbiy Sibir, Volga Kama havzasi, Shimoliy Kavkaz, Kavkaz orti va Qora dengiz bo'yi. Turkiy tillarning genetik, lisoniy xususiyatlar jihatidan o'zaro munosabati masalasiga qiziqish juda qadimdan davom etib keladi.

Turkiy tillarni birinchi marta tasnif qilgan olim Mahmud Qoshg'ariydir. Turkiy tillar tasnifi bilan qiziqish XIX asr oxiri va XX asrda qayta avj oldi va hozirgacha ko'plab tasniflar vujudga keldi (rus olimlari I.N.Berezin, V.V.Radlov, F.Ye.Korsh, A.N.Samoylovich,



V.A.Bogorodiskiy, N.A.Baskakov, B.A.Serebrennikov, turk olimi R.R.Arat, fin olimlari G.Y.Ramstedt va A.M.Ryasyanen, nemis olimlari I.Bensing va K. G.Mengeslarning tasniflari). Bu tasniflar metodi, oldiga qo'ygan maqsadi nuqtai nazaridan xilma-xildir. Shuning uchun, bu tasniflarning birida biron-bir guruhga mansub deb hisoblangan til ikkinchisida boshqa bir guruhga tushib qolishi mumkin. Turkiy tillarni tasnif qilishning o'ziga xos qiyin tomonlari bor. Bu qiyinchilik, avvalo, Turkiy tillarning o'zaro fonetik, leksik, grammatik jihatdan yaqinligidan kelib chiqadi. Ikkinchidan, alohida olingan har bir turkiy xalqning tarkib topishida turli xil qabilalarning ishtirok etganligi va bir qabila bir paytning o'zida bir necha turkiy xalqning shakllanishida ishtirok etganligi bilan izohlanadi. Tadqiqotchilarning ko'plab asarlarida turkiy tillarga oid masalalar o'rganilgan, mavjud adabiyotlar tarixshunoslik nuqtai nazaridan tahlil etilgan, hozirgi turkiy tillarning umumiy xususiyatlariga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan[2].

2025 yil 12 noyabrda Istanbul shahrida bo'lib o'tgan Turkiy kengash sammitida turkiy tilli xalqlarning dunyo sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan beqiyos hissasi va boy yozma merosini birgalikda o'rganish maqsadida "Turkiy tilli davlatlarning tarixiy, ilmiy va madaniy merosini o'rganish tadqiqot markazi"ni tashkil etish taklifi ilgari surildi. Boshqa ko'plab mamlakatlar singari O'zbekistonda ham mushtarak tarix va madaniyatga oid 200 mingga yaqin noyob qo'lyozmalar mavjud [3.]. Markaz ushbu asarlarni birgalikda o'rganish, ularni tarjima qilish, yagona elektron

bazasini yaratish, raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali kelgusi avlodlarga yetkazish hamda jahon miqyosida targ'ib etishga muhim hissa qo'shadi.

3.Tadqiqot usullari:

Ushbu maqola umume'tirof etilgan metodlar, jumladan tarixiylik, qiyosiy-tahlil, ilmiylik, xolislik tamoyillari asosida o'rganilgan bo'lib, bugungi kunda turkiy tilli davlatlar xalqlarining tarixiy, ilmiy va madaniy merosini o'rganish yangi bosqichga ko'tarilgani, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ilgari surgan ochiqlik va hamkorlik siyosati natijasida muloqotlar yangi mazmun kasb etayotgani, bu jarayonning mantiqiy davomi sifatida yangi tashabbuslarning dunyoga taqdim etilayotgani yangi yondashuvlar asosida yoritilgan. Shu bilan birga, bu borada qabul qilingan ko'plab kelishuvlar, shartnoma va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar mazmun-mohiyati ochib berilgan.

4.Natijalar:

Hozirgi kunda turkiy tilli davlatlar rahbarlarining o'zaro tashriflari, muntazam uchrashuv va muzokaralari natijasida bir qator dolzarb muammolar o'z amaliy yechimini topayotgani, yangi shartnoma va kelishuvlarning imzolanishi hamkorlikni yanada kengaytirish uchun keng yo'l ochib bermoqda. Shu boisdan ham, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Mintaqamizda yangi siyosiy muhitning shakllanishida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari Maslahat uchrashuvlarining o'rni va ahamiyati beqiyosdir"[4.-B.362].

Hamkorlikdagi barcha sa'y-harakatlar, loyiha va dasturlar, o'zaro



ishonch va hurmat muhitini mustahkamlab, turkiy xalqlar tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan va ularning manfaatlariga to'liq javob beradigan hamkorlikni izchil rivojlantirishga va mazmunan boyitishga xizmat qilmoqda. Ezgu intilishlar zamiridagi pok niyat va buyuk ishonch mujassam bo'lgan totuvlik va hamjihatlikni ta'minlash borasidagi sa'y-harakatlar, ayniqsa, jahon ahliga yaxshi ma'lum bo'lgan, turkiy tilli xalqlar o'rtasida barqarorlik va xavfsizlikni mustahkamlashga qaratilgan aniq maqsad yo'lidagi bunyodkorlik ishlari amaliy natija bermoqda.

Turkiy tilli davlatlar o'rtasidagi tarixiy, ilmiy va madaniy aloqalarni ilmiy nuqtai nazardan o'rganish bugungi kunda ayniqsa, muhim. Ana shundan kelib chiqib, 2025 yil 12 noyabrda Istanbul shahrida bo'lib o'tgan Turkiy kengash sammitida turkiy tilli xalqlarning dunyo sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan beqiyos hissasi va boy yozma merosini birgalikda o'rganish maqsadida "Turkiy tilli davlatlarning tarixiy, ilmiy va madaniy merosini o'rganish tadqiqot markazi"ni tashkil etish taklifi ilgari surildi"[5.]. Buning boisi, O'zbekistonda ham mushtarak tarix va madaniyatga oid nodir asarlar, jumladan, 200 mingga yaqin noyob qo'lyozmalar mavjud bo'lib, ularni birgalikda o'rganish, tarjima qilish, yagona elektron bazasini yaratish, bu sohaga raqamli texnologiyalarni joriy etish uchun tadqiqot markazi tashkil etish zarurati tug'ildi. Bunga quyidagi muhim omillar sabab bo'ldi, deb hisoblash mumkin:

birinchidan, O'zbekiston bugungi kunda uchinchi Renessans –Uyg'onish davri ostonasida turibdi. Yuqorida

keltirilgan taklifni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning so'nggi besh yilda mamlakat hayotining birgina yo'nalishi, ya'ni ma'rifat va ilm-fanni rivojlantirish yo'lida olib borayotgan siyosatining uzviy davomi sifatida ko'rish mumkin. Uchinchi Renessans mustahkam poydevorini yaratish uchun, avvalo, ajdodlar koldirgan bebaho tarixiy, ilmiy va madaniy merosni o'rganish nihoyatda zarur;

ikkinchidan, ushbu Markaz dunyodagi barcha qardosh turkiy xalqlarining jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan bebaho hissasi haqida har tomonlama fikr almashish uchun maydon bo'lib xizmat qiladi. Shuning bilan bir qatorda, ilmiy izlanishlar olib borish va bugungi davrdagi dolzarb masalalar borasida samarali yechimlarni xamkorlikda ishlab chiqish, tajriba almashishga imkon beradi;

uchinchidan, qardosh xalqlarning ko'p asrlik milliy va diniy qadriyatlarini asrab-avaylash va yoshlarni komil inson etib tarbiyalash jamiyatda barqaror ijtimoiy-ma'naviy muhitni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kelajakda turkiy dunyo birligini ta'minlashga hamda o'zbek xalqining umumiy farovonligi va ravnaqiga xizmat qiladi.

Turkiy tilli xalqlarda buyuk ajdodlarga nisbatan hurmat-ehtiram, ularning boy ilmiy merosini o'rganishga qiziqish hamisha yuqori bo'lgan. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Prezident Shavkat Mirziyoyevning ushbu dolzarb tashabbusi tashkilot faoliyatida tarixiy, madaniy va ilmiy yo'nalishlarda o'zaro munosabatlarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqib, mavjud katta



imkoniyat va yuksak darajadagi salohiyatdan to'liq va unumli foydalanish uchun mustahkam zamin yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi 2019 yilda Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashiga a'zo bo'lib kirgan[6.]. Mazkur kengash tomonidan a'zo davlatlarning tarixiy, ilmiy va madaniy merosini o'rganish, uni kelgusi avlodlarga yetkazish hamda jahon miqyosida targ'ib etish masalasiga alohida e'tibor berilmoqda. Bu tashkilotning asosiy maqsadi-qardosh mamlakatlar o'rtasida ishonch va aloqalarni mustahkamlash, savdo-iqtisodiyot, transport, energetika, turizm va madaniy-gumanitar sohalarda hamkorlikni rivojlantirish, turkiy tilli mamlakatlarda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash borasidagi sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirishdan iborat. Tashkilot a'zolari, ekspertlar tomonidan turkiy tilli xalqlar orasida o'zbek xalqining ham tarixiy o'rnini, salohiyati va ahamiyati borligi e'tirof etildi.

2025 yilning noyabr oyida Samarqandda bo'lib o'tgan YUNESKO Bosh konferensiyasida 15 dekabr – Butunjahon turkiy tillar kuni deb e'lon qilingan. Xalqaro hamjamiyat ushbu kunni insoniyatning umumiy merosini boyitadigan til xilma-xilligini tan olish yo'lidagi muhim qadam deb hisobladi. “Sana tanlash ramziydir va chuqur ma'noga ega, – [deyiladi](#) BMT yangiliklar xizmati xabarida. – 1983 yil 15 dekabrda daniyalik tilshunos Vilgelm Tomsen barchaga ma'lum bo'lgan eng qadimgi yozma manbalardan biri O'rxun yozuvlari alifbosi muvaffaqiyatli o'qilganini e'lon qilgandi. Yozuvlar qadimgi turkiylar tomonidan eramizning VIII asrida hozirgi Mo'g'uliston hududidagi O'rxun vodiysida yaratilgan

va 1889 yilda topilgan. Tomsenning yutug'i bugungi kunda butun Yevroosiyo bo'ylab o'nlab jamoalarni bog'lab turgan til an'anasi haqida bebaho tushuncha beradi"[7.].

Har yili qadimiy va boy madaniy obidalarga ega, katta ahamiyat kasb etuvchi shaharlar Turkiy dunyo madaniy poytaxti, deb e'lon qilib kelinmoqda. Masalan, 2012 yilda Ostona, 2013 yilda Eskishexir (Turkiya), 2014 yilda Qozon (Rossiya), bir yil o'tib, Marv (Turkmaniston), 2016 yilda Sheki (Ozarbayjon), 2017 yilda Qozog'istonning Turkiston, 2018 yilda Turkiyaning Kostomonu, 2019 yilda Qirg'izistonning O'sh shahri bu maqomga ega bo'ldi. 2020–2021 yillarda esa ushbu maqomni O'zbekistonda Xiva shahri qo'lga kiritdi [8.]. San'at va adabiyot sohasida katta yutuqlarga erishayotgan, turk dunyosi birdamligiga munosib ulush qo'shayotgan shaxslarning Kengash doirasida g'azal mulkining sultoni, benazir shoir va atoqli davlat arbobi Alisher Navoiy hazratlari nomidagi mukofotni ta'sis etish to'g'risidagi taklifi juda o'rinli bo'ldi. Buyuk mutafakkir o'z davrida turk tilining rivoji uchun beqiyos va tengi yo'q hissa qo'shibgina qolmay, keng mintaqalarda yashagan urf-odati va qadriyatlarini mushtarak xalqlarning ahil va birdamligi, elu yurtlarning obodligi yo'lida ulkan hissa qo'shgan. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning o'lmas ma'naviy merosi, boqiy ijodiy ganjini barcha xalqlar uchun birdek qimmatli, ummondek cheksiz va har qancha ardoqlab, tarannum etsa arziydi.

Turkiy tilli xalqlar o'rtasida ko'p asrlik, tarixan tarkib topgan yaqin do'stlik, yaxshi qo'shnichilik, insonparvarlik munosabatlari, bir-birini



qo'llab-quvvatlash va hamkorlikning turli jihatlarini izchil tahlil etish mustaqillikka erishgan O'zbekiston uchun nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda amalga oshirilayotgan milliy manfaatlarini takomillashtirish, salbiy hodisalarning paydo bo'lish xavfini o'z vaqtida anglab yetish, turkiy tilli mamlakatlarda yashab turgan barcha millat va elatlarni jipslashtirish, ular o'rtasidagi hamjihatlik, osoyishtalik va barqarorlikni mustahkamlash, mustaqillik ruhiyatini ko'tarish va hamkorlikdagi ishlarning amaliy samarasini yosh avlod ongi va qalbiga singdirish borasidagi vazifalarni hal etish yuzasidan asosli takliflar ishlab chiqish imkonini beradi.

Turkiy tilli davlatlar xalqlari o'rtasidagi aloqalarni kuchaytirish, shuningdek, umumintaqaviy hamjihatlik va o'ziga xoslikni mustahkamlashga xizmat qiladi. O'zbekistonda bag'rikenglik va millatlararo totuvlik – davlat siyosatining ajralmas qismi sifatida tarixiy ildiz va mustahkam qonuniy asoslarga ega. Jamiyatdagi o'zaro hurmat, mehr-oqibat va birdamlik kabi oliyjanob fazilatlar, milliy va umumbashariy qadriyatlarga uyg'un yashash tamoyili tobora mustahkamlanib borayotgani O'zbekistonda istiqomat qilayotgan barcha millat va elat vakillarining hayot tarzi jahon hamjamiyati tomonidan keng e'tirof etilmoqda. Bu o'lkada 130 dan ortiq millat va elat vakillari yagona oila farzandlaridek ahil yashayotganligi, ana shunday ko'p sonli millat va elat vakillarining birgalikda, hamnafas va hamjihat bo'lib umr kechirishi natijasida ular bir-birlarini ma'naviy va madaniy jihatdan boyitib bormoqda.

Keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan turkiy tilli xalqlar o'rtasidagi madaniy-ma'rifiy, adabiy-madaniy aloqalarni rivojlantirish yo'lida misli ko'rilmagan ishlar amalga oshirildi. Bu esa qardosh xalqlar o'rtasidagi do'stlik va hamjihatlikni mustahkamlashda muhim omil bo'lmoqda. 2025 yil 25 dekabr kuni O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida Butunjahon turkiy tillar kuni munosabati bilan "Turkiy tillar birligi – bir ildiz, bir til, bir madaniyat" mavzusida ma'rifiy anjuman o'tkazildi.

Mazkur tadbir Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, "Vatandoshlar" jamoat fondi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Oliy Majlis huzuridagi fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi va "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati hamkorligida tashkil etildi. Anjumanda adabiyotshunos olimlar, shoir va yozuvchilar, yosh tadqiqotchilar hamda xorijdan tashrif buyurgan vatandoshlar ishtirok etdi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi Sirojiddin Sayyid, O'zbekiston xalq yozuvchisi Isajon Sulton, "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati raisi Baxtiyor Husanov, O'zbekiston xalq shoiri Mahmud Toir va boshqalar turkiy tilli xalqlar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash masalalariga katta e'tibor qaratilayotganini ta'kidladilar. "Prezident tashabbusi bilan turkiy tilli xalqlar hamkorligini mustahkamlashning yangi bosqichiga asos solindi, – dedi O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi Sirojiddin Sayyid. – Bu esa adabiy hamkorlik, so'z san'ati, madaniyat, ma'rifat rivojida juda muhim"[9].



Mazkur loyiha turkiy xalqlarni asrlar davomida birlashtirib kelgan umumiy til, adabiy meros va madaniy qadriyatlarni keng targ'ib etish, turkiy ziyolilar, shoir va yozuvchilar ilmiy-ijodiy merosini ommalashtirish, shuningdek, yosh avlodda turkiy tillar va madaniyatga nisbatan qiziqish va hurmat tuyg'usini kuchaytirish maqsadida o'tkazildi. Tadbir davomida "Vatandoshlar" jamoat fondi tashabbusi bilan "Ezgu amal" loyihasi doirasida tojikistonlik va qozog'istonlik vatandoshlar qalamiga mansub "Turkiston farzandiman", "Hayrat suratlari" va "Qalb tug'yoni" kitoblari hamda "Vatandosh" jurnali taqdimoti bo'lib o'tdi. Tadbirda so'zga chiqqanlar yangi nashrlarning mazmun-mohiyati, adabiy, ma'naviy va ijtimoiy ahamiyati haqida iliq fikrlar bildirdi. "Vatandoshlar" jamoat fondi va Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi bilan hamkorlikda 2025 yilda samarali ishlar amalga oshirganligi ta'kidlandi. AQSHda istiqomat qilayotgan fuqarolar uchun "Ma'naviyat festivali" o'tkazildi. Qolaversa, xorijda istiqomat qiluvchi vatandoshlar uchun o'zbek tili kurslari, ma'rifat soatlari tashkil etilishi reja qilingan. Maqsad xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni yanada mustahkamlash, mamlakatda bo'layotgan islohot va o'zgarishlardan ularni ham boxabar qilib turishdan iborat. Ma'rifiy tadbirda "Vatandan so'zlar" loyihasiga start berildi va bunda "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati ekspertlari tomonidan saralangan 10 mingga yaqin badiiy kitoblar xorijda istiqomat qiluvchi vatandoshlarga yuborildi. Kelgusi yilda ham hamkor tashkilotlar bilan birgalikda ma'naviy-

ma'rifiy tadbirlar o'tkazilishi ko'zda tutilgan. Shuningdek, 2025 yil mart oyida "Markaziy Osiyo ovozi" – "Markaziy Osiyo ovozi" – "Voice of Central Asia" konsert dasturi tashkil etildi. Loyihaning maqsadi – Markaziy Osiyo davlatlarida istiqomat qilib, o'zbek tilida ijod qilayotgan yosh iste'dod egalarini ma'naviy qo'llab-quvvatlashdan iborat.

Ma'lumotlarga ko'ra, yer yuzidagi ikki yuzga yaqin davlatda 7 milliard 700 million kishini tashkil etadigan, 7000 til va lahjada gaplashadigan aholi istiqomat qilmoqda. Jahonning etnik xaritasiga e'tibor berilsa, bugungi kunda dunyoda miqdoran bir necha yuztadan tortib bir necha yuz millionni tashkil etadigan 2000 ga yaqin har xil millat va elatlar yashayotganiga guvoh bo'lish mumkin. Shunday ekan, millatlararo bag'rikenglik, ular orasida o'zaro hurmat va do'stona aloqalarni o'rnatish orqaligina dunyoda barqarorlik, osoyishtalikni ta'minlashning asosiy omili bo'lib qolaveradi[10]. Turkiy til tarixini imkon qadar yoritishda taniqli akademik, tarix fanlari doktori A.Asqarov va qardosh qozoq xalqining farzandi adib O'ljas Sulaymonlarning asarlari ushbu mavzuni yoritishda birlamchi manba bo'lib xizmat qildi[11]. Hozirgi O'zbekistonning 2017 yildan keyingi rivojlanish tarixi shakllanayotgan yangi jamiyatning liberallashtirish qiyofasini namoyon qilmoqda. Mamlakat o'z mustaqilligini e'lon qilgan kundan boshlab, yuz bergan ikkinchi inqilobiy to'lqin odamlar ongini tubdan o'zgartirib yubordi. Bu siyosiy jarayon milliy tarixga yana bir bor murojaat qilishga to'g'ri keldi. Natijada real tarixni tiklash, uni ommaga olib chiqish va xalqaro miqyosda ma'naviy qadr-qimmatini ta'minlash masalasida



ulkan qadamlar tashlandi. Bu ma'naviy tiklanish bir asrdan ortiq davr davomida tutqinlikda bo'lgan sharqiy turk tillari uchun ulkan tarixiy, ma'naviy va siyosiy ahamiyatga egadir.

O'zaro munosabatlar ta'sirida ko'p millatli o'zbek xalqining turmush tarzi yanada yuksalib borayotgani sabab, Yangi O'zbekistonning dunyo hamjamiyatidagi imidji kun sayin ijobiy tomonga o'zgarib bormoqda. Shuningdek, turli millat vakillarining konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ta'lim olishi, o'z qiziqishi va layoqati bo'yicha kasb-hunar egallashi, mehnat qilishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Ayni paytda, turli millat va elatlarning milliy an'ana va qadriyatlarini asrab-avaylash, ularni yanada rivojlantirish, boyitish masalasi davlat siyosatining doimiy e'tiborida bo'lib kelmoqda. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida yetti tilda – o'zbek, qoraqalpoq, rus, qirg'iz, turkman, qozoq va tojik tillarida bilim berilayotgani, shuningdek, ommaviy axborot vositalari O'zbekistonda istiqomat qilayotgan millatlarning 10 ta tilida faoliyat olib borayotgani buning yorqin ifodasidir [12]. Zero, millatlararo totuvlik, hamjihatlik va ayniqsa, o'zaro munosabatlarni ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar jamiyat birdamligini ta'minlashda muhim omil ekan, ularning natijalarini tahlil etish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

5. Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, turkiy tilli xalqlarda buyuk ajdodlarga nisbatan hurmat-ehtirom, ularning boy ilmiy merosini o'rganishga bo'lgan qiziqish hamisha yuqori bo'lgan. Shu o'rinda,

Prezident Shavkat Mirziyoyevning ushbu dolzarb tashabbusi tashkilot faoliyatida tarixiy, madaniy va ilmiy yo'nalishlarda o'zaro munosabatlarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqib, mavjud katta imkoniyat va yuksak darajadagi salohiyatdan to'liq va unumli foydalanish uchun mustahkam zamin yaratadi.

YUNESKOning ta'kidlashicha, turkiy tillar oilasiga mansub ozarbayjon, qozoq, qirg'iz, turk, turkman va o'zbek tillari taxminan 12 mln.kv.kilometr maydonda 200 mln.dan ortiq aholi uchun ona tili hisoblanadi. Turkiy tillardagi boy hujjatli meros, shuningdek, yorqin og'zaki an'analar 10 dan ortiq davlatni birlashtiradi. Butunjahon turkiy tillar kunini nishonlash tashabbusi bilan Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkiya va O'zbekiston chiqqan edi. Buni dunyoning 21 mamlakati qo'llab-quvvatladi[13].

Dunyoda ilk bor Butunjahon turkiy tillar kunini 2025 yil 15 dekabrda nishonlandi. Bunday qaror noyabr oyida Samarqand shahrida bo'lib o'tgan YUNESKO Bosh konferensiyasida qabul qilingan edi. Tashkilot buni insoniyatning umumiy merosini boyitadigan til xilma-xilligini tan olish yo'lidagi muhim qadam deb hisoblaydi. Shu bilan birga, turkiy tillar kunini e'lon qilish orqali til hamkorligi, madaniy yaqinlashuv va sivilizatsiyalar o'rtasidagi muloqotning muhimligini ham ta'kidlaydi.

Tashabbus tilshunoslik tadqiqotlari, ta'lim va madaniy almashinuv sohalarida xalqaro hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan. YUNESKOning qayd etishicha, ushbu sana keng masshtabli ilmiy tadqiqotlar o'tkazish va turkiy tillarni



asrashga qaratilgan global muloqotni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Turkiy tilli davlatlar xalqlari uchun hozirgi davr tarixiy imkoniyatlar davri, deb baholash mumkin. Turkiy xalqlarning umumiy manfaati, xavfsizligi va birdamligini ta'minlashga qaratilgan strategik qadamlar qo'yilmoqda. "Biz yurtimizda tinchlik va osoyishtalik, fuqarolar va millatlar o'rtasida

hamjihatlik muhitini ko'z qorachig'idek asrashimiz zarur"[14], deb ta'kidladi Prezident Shavkat Mirziyoyev. Shu bilan birga, kelgusida mintaqaviy siyosatning yangi bosqichini, xalqlar o'rtasidagi do'stlik va ishonchning mustahkamlanishini, milliy va umumiy qadriyatlarining asrab-avaylanishini ta'minlashda ham hamjihatlik talab etiladi.

References:

1. Shavkat Mirziyoyev. Vatan va xalq haqida o'ylar.-Toshkent: O'zbekiston, 2025.-B.401.
2. Qo'chqortoyev I, Isabekov B., Turkiy filologiyaga kirish, Turkiy tillar, 1984; Rafiyev A. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi. O'quv qo'llanmasi.-Toshkent, 2004.-104 b.; Buranov A. Turkiy tillarni qiyosiy o'rganish va oltoyshunoslikni fan sifatida rivojlantirish istiqbollari.-Toshkent, 2019.; Z.Xolmanova. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi. Ma'ruzalar matni.-Toshkent, 2023; Turkiy tillar//<https://uzsmart.uz/encyclopedia/encyclopedia/30915>.
3. Turkiy tilli davlatlarning tarixiy, ilmiy va madaniy merosini o'rganish tadqiqot markazi - qardosh xalqlar o'rtasidagi munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqadi// <https://isrs.uz/uz/smti-ekspertlari-sharhlari/turkiy-tilli-davlatlarning-tarihij-ilmij-va-madaniy-merosi>.
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2021.-B.362.
5. Turkiy tilli davlatlarning tarixiy, ilmiy va madaniy merosini o'rganish tadqiqot markazi - qardosh xalqlar o'rtasidagi munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqadi// <https://isrs.uz/uz/smti-ekspertlari-sharhlari/turkiy-tilli-davlatlarning-tarihij-ilmij-va-madaniy-merosi>.
6. O'zbekistonning Turkiy kengashga a'zo bo'lishi - tabiiy va tarixiy jarayon// <https://president.uz/uz/lists/view/2939>.
7. [Dunyoda ilk bor Butunjahon turkiy tillar kuni nishonlanmoqda - O'zbekiston yangiliklari - Gazeta](https://www.gazeta.uz/uz/2025/12/15/turkic-languages/)// <https://www.gazeta.uz/uz/2025/12/15/turkic-languages/>
8. Turkiy Kengash haqida nimalarni bilamiz?// <https://xabar.uz/siyosat/turkiy-kengash-haqida-nimalarni-bilamiz>.
9. Turkiy tillar birligi - bir ildiz, bir til, bir madaniyat// <https://uza.uz/uz/posts/turkiy-tillar-birligi-bir-ildiz-bir-til-bir-madaniyat-80028>.
10. Aldabergenov I. [Millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik - birdamlik omili](https://qoraqalpoq.adliya.uz/uz/news/detail.php?ID=35743)//<https://qoraqalpoq.adliya.uz/uz/news/detail.php?ID=35743>.
11. Sulonov A. Turkiy tillar tarixi masalalari// <https://zenodo.org/records/7162333>.



12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 15 noyabrdagi "Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5876-son Farmoni// <https://uza.uz/posts/201635>.
13. [Dunyoda ilk bor Butunjahon turkiy tillar kuni nishonlanmoqda – O'zbekiston yangiliklari – Gazeta](https://www.gazeta.uz/uz/2025/12/15/turkic-languages/)// <https://www.gazeta.uz/uz/2025/12/15/turkic-languages/>
14. Shavkat Mirziyoyev. Vatan va xalq haqida o'ylar.-Toshkent: O'zbekiston, 2025.-B.403.